**Ключевые слова:** управление качеством, промышленность строительных материалов, ISO 9001, международные стандарты, TQM, инновации, конкурентоспособность, технологическая модернизация, кадровый потенциал, японский опыт, немецкий стандарт, контроль качества в США, Smart Factory.

## KIRISH

Sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi nafaqat yangidan-yangi qurilish loyihalarini hayotga tatbiq etishni, balki bu jarayonda ishlatiladigan qurilish materiallarining sifatini tubdan yaxshilashni ham taqozo etmoqda. Bugungi global iqtisodiyot sharoitida qurilish materiallari sanoati nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi, balki innovatsiya va texnologiyalarning amalda tatbiq etilishini aks ettiruvchi strategik tarmoq sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, har qanday qurilish ob'ektining barqarorligi va uzoq muddatlilik xususiyatlari bevosita unda ishlatilgan materiallar sifatidan kelib chiqadi.

Mamlakatlar o'rtasidagi raqobat keskinlashgan bir sharoitda sifat - endi oddiy texnik ko'rsatkich emas, balki iqtisodiy kuch, ishonch va xalqaro bozordagi mavqe belgilaydigan asosiy omilga aylangan. Ayniqsa, qurilish



materiallari singari resurs talab yuqori bo'lgan tarmoqlarda sifatni boshqarish masalasi iqtisodiy samaradorlik, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, energiya tejamkorligi va ekologik barqarorlik kabi muhim jihatlar bilan uzviy bog'liqdir.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sifat menejmenti tamoyillarini to'g'ri tashkil etish - bu faqatgina mahsulotning sifatini oshirish emas, balki korxonaning barcha ishlab chiqarish va boshqaruv tizimini yaxshilashga xizmat qiluvchi keng qamrovli strategik yondashuvdir. Masalan, Germaniya va Yaponiya kabi mamlakatlar qurilish materiallari sanoatida "Total Quality Management" (TQM), "Lean Production", "Kaizen" va ISO 9001 kabi standartlar asosida sifatni to'liq nazorat qilish tizimlarini yo'lga qo'ygan. Bunday yondashuvlar mahsulot sifatini kafolatlash bilan birga, iste'molchi ishonchi va bozordagi mavqeni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, Yaponiyaning "Kaizen" falsafasi, AQShdagi standartlashtirish va texnik audit amaliyoti, Xitoydagi raqamli sifat monitoringi kabi innovatsion yondashuvlar so'nggi yillarda qurilish materiallari sanoatida sifatni boshqarishni butunlay yangi bosqichga olib chiqdi. Ular nafaqat mahsulotdagi nuqsonlarni bartaraf etish, balki ularning kelib chiqish sabablarini ildizidan aniqlash va tizimli ravishda bartaraf etishga qaratilgan.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda bu sohaga e'tibor tobora kuchaymoqda. Xususan, "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi doirasida sanoat tarmoqlarini texnik va texnologik yangilash, xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, mahalliy xomashyo bazasiga tayanib eksportbop qurilish materiallari turlarini kengaytirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Ammo amaliy jihatdan sifat menejmentini to'liq joriy etish, uning xalqaro tajribalari asosida mahalliy modellarini ishlab chiqish hali to'laqonli darajada emas.

Shu nuqtai nazardan, qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish jarayonlarini sifat menejmenti tamoyillari asosida qayta tashkil etish, xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish va ularni milliy sharoitga moslashtirish bugungi kunning muhim ilmiy va amaliy vazifalaridan biridir.

Qurilish materiallari sanoati nafaqat iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri, balki mamlakat infratuzilmasini yangilash, shaharsozlikni rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa, so'nggi yillarda O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, yirik infratuzilma loyihalarining amalga oshirilishi va shaharlarni kompleks rivojlantirish dasturlari ushbu sohaga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirdi. Bunday sharoitda ichki bozorni yuqori sifatli, zamonaviy qurilish materiallari bilan barqaror ta'minlash, shu bilan birga, eksportbop mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish dolzarb masalaga aylandi.

Qurilish materiallari ishlab chiqarishda sifatni boshqarish bo'yicha tizimli yondashuvning yetarlicha shakllanmagan, ya'ni aksariyat mahalliy korxonalarda sifatga nisbatan yondashuv hali ham an'anaviy va reaktiv usullarga tayanadi - ya'ni nuqsonlar yuzaga kelgach, ularni bartaraf etishga qaratish lozim bo'ladi. Holbuki, jahon amaliyotida sifatni boshqarish profilaktik, prognozlashtiruvchi va strategik yondashuvga asoslanadi. Shu bois, bu borada ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va mahalliy realikka moslashtirish - tezkor va muvaffaqiyatli rivojlanish kafolatlaridan biridir.

Yana bir muhim jihat sifat masalasining faqat ishlab chiqarishga emas, balki bozordagi raqobatbardoshlikka ham ta'sir qilishidir. Xalqaro bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan korxonalar nafaqat texnik jihatdan sifatli mahsulot ishlab chiqaradi, balki ISO, ASTM, EN kabi xalqaro standartlarga javob beruvchi, ekologik xavfsiz va istiqbolli mahsulotlarni taklif etadi. O'zbekistonning xalqaro savdo tuzilmalariga integratsiyasi jarayonida mahalliy mahsulotlarning sifat sertifikatlari va standartlarga mosligi muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, sifat menejmentining joriy etilishi barcha ishlab chiqarish jarayonlarini tizimlashtirish, inson omili ta'sirini kamaytirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa, nihoyatda raqobatbardosh va barqaror sanoat muhitini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda dunyoning ko'plab davlatlarida energiya tejamkor, bioqurilish materiallari va innovatsion qo'shimchalar bilan boyitilgan mahsulotlarga talab ortgan. O'zbekiston korxonalari bunday tendensiyalarga moslashishi uchun sifatni boshqarishning zamonaviy mexanizmlarini joriy etishi zarur.

Qurilish materiallari sanoatida sifatni boshqarish faqat texnik yoki texnologik muammo emas - u strategik qaror qabul qilish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, sifat menejmentini faqat ishlab chiqarish sexlariga emas, balki butun korxonaga faoliyatiga - moliyaviy, marketing, ta'minot va logistika tizimlariga ham integratsiya qilish zarur.

Xulosa qilib aytganda, bugungi raqobatbardosh iqtisodiyot sharoitida sifat menejmentini joriy etish va xalqaro tajribalar asosida mahalliy modelni shakllantirish - qurilish materiallari sanoatining barqaror, eksportbop va innovatsion rivojlanishi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etish va boshqarish borasidagi ilmiy tadqiqotlar dunyoda ancha ilgari qilgan bo'lib, ularda asosiy e'tibor ishlab chiqarish jarayonini standartlashtirish, nol kamchilik



tamoyillari, tizimli nazorat va mijoz markazli yondashuvlarga qaratiladi. Bu boradagi eng nufuzli konsepsiyalar Deming, Juran, Krosbi, Feygenbaum, Isikava kabi sifat menejmentining asoschilarining ishlarida o'z ifodasini topgan.

Amerikalik mutaxassis Edvards Demingning "PDCA" (Plan-Do-Check-Act) sikli asosidagi sifat yaxshilash modeli, hozirgi kungacha turli sohalarda, jumladan, qurilish materiallari sanoatida ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Deming sifatni yaxshilash uchun faqat mahsulotni emas, balki butun jarayonni qayta ko'rib chiqishni taklif qiladi. [1] Deming modelining o'zi yetarli emasligini, muvaffaqiyat uchun strategik boshqaruv va tashkiliy madaniyat ham muhimligini ta'kidlaydilar.

Jozef Juran esa sifatni boshqarishni "sifat rejalashtirish", "sifat nazorati" va "sifatni yaxshilash"dan iborat uch burchakli tizim sifatida tavsiflaydi. Uning fikriga ko'ra, har bir tashkilotda sifatga mas'ullik butun boshqaruv darajalarini qamrab olishi shart.[2] Juranning bu qarashlari qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda o'rta va yuqori menejment qatlamlarining roli kam baholanmasligi kerakligini ko'rsatadi.

Filip Krosbi tomonidan ilgari surilgan "Sifat – bu bepul" (Quality is Free) shiori asosida sifatga sarflangan xarajatlar oxir-oqibat kompaniya uchun tejamlilik va raqobat ustunligini ta'minlashini isbotlaydi. Krosbining "nol kamchilik" tamoyili qurilish materiallarini ishlab chiqarishda juda dolzarb, chunki bu mahsulotlar ko'pincha qayta ishlovsiz ishlatilishi tufayli, ulardagi har qanday nuqson katta xavf tug'dirishi mumkin.[3]

Armand Feygenbaumning "Total Quality Control" nazariyasida sifatni faqatgina texnik muammo deb emas, balki butun kompaniyani qamrab oladigan strategik vazifa sifatida talqin qiladi. Unga ko'ra, sifat nazorati faqat laboratoriya yoki nazorat bo'limi vazifasi emas, balki xarid, logistika, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonlarining bir butun tizimda ishlashini talab qiladi.[4] Bu yondashuv qurilish materiallari tarmog'ida integral boshqaruv mexanizmlari joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Yapon olimlari ham sifat boshqaruvi nazariyasini amaliyotga tatbiq etishda katta hissa qo'shgan. Masalan, Kaoru Isikavaning "sifat doiralari" va "Isikava diagrammasi" (sabab-oqibat diagrammasi) sifat muammolarini tizimli tahlil qilishda samarali vosita hisoblanadi.[5] Yaponiyadagi "Kaizen" falsafasi - ya'ni doimiy yaxshilanish tamoyili - bugungi kunda qurilish materiallari ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda muhim metodologiya sifatida qaralmoqda.

Oxirgi yillardagi ilmiy tadqiqotlarda sifat boshqaruvining raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashuviga alohida e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, Zhou va Zhao tomonidan Xitoydagi qurilish materiallari korxonalarida IoT va sun'iy intellekt asosida sifatni nazorat qilish tizimlari qo'llanilayotgani, bu esa nuqsonlarni real vaqtda aniqlash va bartaraf etishda juda katta samara berayotgani ta'kidlangan.[12]

Bunday tahlillar shundan dalolat beradiki, sifat menejmenti sohasidagi har bir nazariya yoki amaliy yondashuv qurilish materiallari sanoatida qo'llanilishi mumkin, ammo ularni bevosita ko'chirib olish emas, balki mahalliy bozor sharoiti va ishlab chiqarish imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda moslashtirish talab etiladi.

Yapon olimi Genichi Taguti sifatni nazorat qilishda statistik usullarni qo'llashni ilgari surgan. Uning "Taguchi Method" deb nom olgan usuli ishlab chiqarish jarayonlarini tahlil qilishda signal-shovqin munosabatlarini hisobga oladi, bu esa mahsulot sifatini tashqi omillar ta'siridan himoya qilish imkonini beradi.[6] Tagutining usuli qurilish materiallari ishlab chiqarishda xomashyo sifatining o'zgaruvchanligiga qaramay, barqaror natijalarga erishish imkonini beradi. Biroq, bu metod ko'proq texnik va murakkab hisob-kitoblarga asoslanishi sababli, uning amaliyotda qo'llanilishi ko'pincha yirik va yuqori texnologik korxonalar bilan cheklanadi.

John S. Oakland o'zining tadqiqotlarida sifat menejmentini faqat ishlab chiqarish bilan bog'lamaydi. U "Operational Excellence" tushunchasini ilgari surib, tashkilotning barcha bo'limlarida yuksak samaradorlikni ta'minlash uchun sifatni strategik boshqarish zarurligini ta'kidlaydi.[7] Uning fikricha, qurilish materiallari tarmog'i kabi resurs talab etuvchi sohalarda "Total Quality Management" (TQM) tizimi biznes jarayonlarini isloh qilish bilan birga mijozlarga qiymat yaratishni ham ta'minlaydi.

Dale H. Besterfield o'zining Total Quality Management asarida sifatni tashkilotning barcha jabhalarida integratsiya qilish zarurligini nazarda tutadi. U sifatni ishlab chiqarish bilan cheklamay, ta'minot, logistika, kadrlar boshqaruvi va sotuv jarayonlariga ham bog'laydi.[8] Ayniqsa, qurilish materiallari ishlab chiqarishda logistika va ta'minot zanjiri sifatni saqlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

David Garvin tomonidan sifat tushunchasini 8 ta o'lchov asosida tizimlashtirgan: ishonchlilik, funktsionallik, muvofiqlik, estetika, xizmat ko'rsatish darajasi, xavfsizlik, darrovlik va perseptiv sifati.[9] Bu model qurilish materiallarini baholashda nafaqat texnik, balki mijoz ko'zi bilan qarash imkonini beradi. Ammo uning modellari ko'proq xizmatlar sohasida qo'llanilishi munosabati bilan sanoat tarmoqlarida chuqurlashtirilgan tadbiriqini talab qiladi.

Peter M. Senge o'zining "The Fifth Discipline" asarida keltirilgan "o'rganuvchi tashkilot" modeli sifatni faqat texnik yoki tashqi nazorat emas, balki tashkiliy o'rganish jarayoni sifatida ko'radi.[10] Qurilish materiallari sanoatida tez o'zgarayotgan texnologiyalar, bozor talablari va xalqaro standartlar fonida bunday yondashuv xodimlarning malakasini uzluksiz oshirishni talab etadi.



Zamani va Esfahani o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida, Eronda qurilish materiallari sanoatida TQM (Total Quality Management) joriy etilishi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotda korxonalarda sifat menejmentining to'la integratsiya qilinmagani, yuqori darajadagi rahbariyatning yetarli darajada jalb etilmagani va xodimlar o'rtasida bilim yetishmasligi asosiy to'siqlar sifatida qayd etilgan.[11]

Qurilish materiallari sanoati mamlakat infratuzilmasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, uning samarali faoliyati iqtisodiy o'sishni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, ushbu sohani sifat menejmenti prinsiplari asosida tashkil etishning xorijiy tajribasini o'rganish - bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. Chunki, xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarish jarayonlari va sifat nazorati tizimlarini joriy etish mahalliy mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni sifat menejmenti tamoyillari asosida tashkil etishning xorij mamlakatlar tajribasini tizimli tahlil, tarixiylik va mantiqiylik, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, qiyosiy va selektiv tanlab tadqiq qilish, monografik tahlil va guruhlash usullari qo'llanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon tajribasida sifat menejmenti borasida Yaponiya, Germaniya, AQSh kabi mamlakatlar yetakchi hisoblanadi. Deming, Juran va Krosbi kabi olimlarning nazariyalari asosida shakllangan TQM (Total Quality Management), ISO 9001, Six Sigma kabi tizimlar turli sohalarda, jumladan, qurilish materiallari sanoatida ham keng qo'llanilmoqda.

-Yaponiya tajribasi: Toyota Production System (TPS) doirasida "Kaizen" falsafasi, ya'ni doimiy takomillashuv va jamoaviy mas'uliyat tamoyillari keng joriy qilingan.

-Germaniya tajribasi: DIN standartlari va ISO 9001 sertifikatlash tizimi orqali sifatni to'liq nazorat qilish va hujjatlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

-AQSh tajribasi: Six Sigma usuli orqali statistik tahlil va muammolarni aniqlash mexanizmi mustahkam yo'lga qo'yilgan.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish maqsadida turli davlatlarda qurilish materiallari sanoatida qo'llanilayotgan sifat menejmenti tizimlari, ularning asosiy xususiyatlari va ta'sirchanlik darajalari o'rganil chiqildi (1-jadval).

1-jadval. Tarmoq sohalarida sifat menejmenti tajribasi

№	Davlatlar	Qo'llanilayotgan tizimlar	Sifatga yondashuv	Kadrlar roli	Ta'sirchanlik darajasi
1	Yaponiya	TPS, Kaizen, ISO 9001	Doimiy takomillashuv, jamoaviy ishtirok	Xodimlarning faol ishtiroki va o'quv jarayonini doimiy rivojlantirish	Yuqori samaradorlik va mahsulot sifatini oshirish
2	Germaniya	DIN standartlari, ISO 9001	Hujjatlashtirish va qat'iy standartlarga rioya qilish	Malaka oshirish orqali sifatni ko'tarish	Sifat barqarorligi va eksport hajmini oshirish
3	AQSh	Six Sigma, ISO 9001	Statistik tahlil va jarayonlarni optimallashtirish	Treninglar va motivatsiya orqali sifatni oshirish	Ishlab chiqarishda kamiliklarni keskin kamaytirish
4	Janubiy Koriya	Smart Factory, ISO 14001, ISO 9001	Avtomatlashtirish, raqamlashtirish va IoT	Injener va IT mutaxassislari jalb etiladi	Innovatsiya orqali mahsulot sifati oshiriladi
5	O'zbekiston	ISO 9001 (joriy etiladi)	Hujjatlashtirish va sertifikatlash jarayoni davom etmoqda	Oliygo'harlar va texnikumlar orqali kadrlar tayyorlanadi	Dastlabgi ijobiy natijalar ko'zatilmoqda

Manba: Tadqiqot natijalariga ko'ra muallif tomonidan shakllantirishdi.

Xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish maqsadida turli davlatlarda qurilish materiallari sanoatida qo'llanilayotgan sifat menejmenti tizimlari, ularning asosiy xususiyatlari va ta'sirchanlik darajalari jadval shaklida taqqoslandi.

Yaponiyada TPS (Toyota Production System) va Kaizen usullari keng qo'llaniladi. Bu tizimlar jamoaviy ishtirok va doimiy takomillashuvga asoslangan bo'lib, ishlab chiqarish jarayonidagi xatolarni bartaraf etishga,



chiqindilarni kamaytirishga va mahsulot sifatini doimiy ravishda oshirishga xizmat qiladi. Xodimlarning doimiy o'quvi va ish jarayonidagi faol ishtiroki esa sifatni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Germaniyada DIN standartlari va ISO 9001 sertifikatlashtirish tizimlari asosida qat'iy hujjatlashtirish va nazorat amaliyoti yo'lga qo'yilgan. Sifatni to'liq hujjatlash va joriy etish jarayonlarini qonunlashtirish orqali eksportbop va yuqori standartlarga javob beradigan mahsulotlar ishlab chiqarish ta'minlangan.

AQShda Six Sigma metodologiyasi orqali jarayonlardagi kamchiliklarni statistik tahlil qilish asosida bartaraf etish amaliyoti ustuvor hisoblanadi. Bu usul ishlab chiqarishdagi xato koeffitsientini minimal darajada ushlab turish imkonini beradi. Treninglar va xodimlarni rag'batlantirish esa tizim samaradorligini yanada oshirgan.

Janubiy Koreya esa Smart Factory konsepsiyasi orqali raqamlashtirish, avtomatlashtirish va IoT (internet narsalar) texnologiyalariga suyangan holda, ishlab chiqarishni yuqori texnologik bosqichga olib chiqqan. Bu nafaqat mahsulot sifatini oshirishga, balki ishlab chiqarish jarayonini jadallashtirish va xarajatlarni optimallashtirishga ham xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda esa ISO 9001 tizimi joriy etilayotgan bo'lib, hali to'liq samaradorlikka erishilgani yo'q. Ayni paytda hujjatlashtirish va sertifikatlash jarayoniga ahamiyat qaratilmoqda. Maxsus texnikumlar va oliygohlar orqali kadrlar tayyorlash ishlari amalga oshirilmoqda. Bu esa milliy ishlab chiqarishda sifat madaniyatini shakllantirishga zamin yaratishi mumkin.

Jadvaldagi ma'lumotlardan kelib chiqib, shunday xulosaga kelish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda sifat menejmenti tizimlari nafaqat standartlashtirish, balki insoniy kapital, raqamlashtirish va jarayonni optimallashtirishga asoslangan. O'zbekistonda esa bu boradagi yutuqlar hali yo'l boshida bo'lib, xorijiy tajribani milliy xususiyatlarga moslashtirgan holda bosqichma-bosqich joriy etish talab etiladi.

## 2-jadval. Tarmoq va sohalarda sertifikatlash va standartlardan foydalanish holati

№	Davlatlar	Xalqaro sertifikatlar qamrovi	Sertifikatlash-tirish organlari	Standartlarga rioya etilish darajasi
1	Yaponiya	ISO 9001, ISO 14001, JIS	JSA, JQA	Juda yuqori
2	Germaniya	ISO 9001, DIN EN ISO 50001	TÜV, DIN, CRETKO	Juda yuqori
3	AQSh	ISO 9001, ISO 45001, ACTM	ANSI, ASQ, NIST	Yuqori
4	Janubiy Koriya	ISO 9001, ISO 14001, K-Mark	KATS, KTL	Yuqori
5	O'zbekiston	ISO 9001 (ayrim korxonalarda)	O'zstandart agentligi	O'rtacha

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, rivojlangan mamlakatlarda qurilish materiallari sanoatida xalqaro va milliy standartlarga qat'iy rioya etiladi va sertifikatlashtirish jarayonlari yuqori darajada yo'lga qo'yilgan:

-Yaponiya va Germaniyada ISO 9001 bilan birga mahalliy standartlar (JIS, DIN) ham amaliyotda mustahkam o'rnanishgan. Mazkur davlatlardagi organlar (JSA, TÜV) xalqaro darajadagi e'tirofga ega.

-AQShda ASTM va ANSI kabi standartlar keng qo'llanilib, ular asosida mahalliy sifatni ta'minlash tizimi shakllantirilgan.

-Janubiy Koreyada K-Mark va ISO 14001 kabi ekologik standartlar ham joriy etilgan. Bu sifat bilan birga barqarorlikka e'tibor qaratilganini ko'rsatadi.

-O'zbekistonda ISO 9001 ayrim yirik korxonalarda joriy etilmoqda. Sertifikatlash organi - O'zstandart agentligi faoliyat olib bormoqda, lekin standartlarga to'liq rioya qilish darajasi hozircha o'rtacha.

Sifat sertifikatlari va xalqaro standartlar raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda hal qiluvchi omil bo'lib, O'zbekistonda bu sohani yanada kuchaytirish talab etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari sanoati har qanday mamlakat infratuzilmasining strategik tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu sohada ishlab chiqarishni samarali tashkil etish va mahsulot sifatini ta'minlash nafaqat iqtisodiy o'sish, balki xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqolada xorijiy davlatlar - Yaponiya, Germaniya, AQSh, Janubiy Koreya va O'zbekistonning qurilish materiallari sanoatida sifat menejmenti tamoyillarini qanday joriy etib kelayotgani tahlil qilindi.

Olib borilgan tadqiqot natijalari va tahlillardan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy xulosalarni berish mumkin:



1. Sifatni boshqarish tizimi - faqatgina tekshirish emas, balki korxonaning falsafasini yaratish kerak. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, sifat menejmenti bu - faqat mahsulotni sertifikatlash yoki tekshirish emas, balki butun ishlab chiqarish madaniyatini o'zgartiradigan tizimli yondashuvdir. Yaponiyadagi Kaizen, AQShdagi Six Sigma yoki Koreyaning Smart Factory loyihalari ish jarayonini to'liq qamrab oladi.

2. Xalqaro standartlar va sertifikatlar sifatni kafolatlaydi. ISO 9001, ISO 14001, ASTM, DIN, JIS kabi xalqaro standartlar orqali sifatni kafolatlash imkoni yaratiladi. Sertifikatlash tizimlari nafaqat sifatni, balki ishonchni ham shakllantiradi. O'zbekistonda bu yo'nalishda faol ishlar olib borilayotgani ijobiy baholanadi, ammo sertifikatlashtirish organlarining mustaqilligi va xalqaro e'tirofi ustidan yana ishlash lozim.

3. Kadrlar - sifatni ta'minlovchi asosiy omil sifatida qarash kerak. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sifatni ta'minlashdagi eng katta omillardan biri - bu inson kapitali. Yaponiya, Germaniya va Koreya kabi mamlakatlarda har yili korxonalar daromadining 2,5-4% qismini kadrlar malakasini oshirishga yo'naltirish odatiy hol. O'zbekistonda bu ko'rsatkich ancha past va bu holat sifatning barqaror ta'minlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

4. Ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarga investitsiya - taraqqiyot kafolati. Texnologik yangilanish va raqamlashtirish jarayonlari orqali sifatni oshirish imkoniyati mavjud. Janubiy Koreyada qurilish materiallari sohasida IoT, AI, avtomatlashtirish kabi innovatsiyalar keng qo'llanilmoqda. O'zbekistonda bu boradagi ilk qadamlar tashlangan bo'lsa-da, ilmiy tadqiqot institutlari va R&D markazlariga investitsiyalarni kengaytirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

5. O'zbekiston Respublikasida qurilish materiallari sanoatida sifat menejmentini joriy etish uchun amaliy takliflar ishlab chiqildi:

-ISO va boshqa xalqaro standartlarni majburiy emas, balki samarali va integratsiyalashgan tarzda joriy etish;

-kadrlar tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqish, amaliy ko'nikmalarni shakllantiruvchi o'quv markazlari sonini oshirish;

-qurilish materiallari sanoatida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ichki sifat nazoratini mustaqil auditorlar orqali baholash tizimini yo'lga qo'yish;

-ilmiy tadqiqotlarga grantlar, soliq imtiyozlari va davlat- xususiy sheriklik asosida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini rivojlantirish;

-xorijiy tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirgan holda, mahalliy strategiya ishlab chiqish.

O'zbekistonda qurilish materiallari sanoatida sifat menejmenti tamoyillarini to'liq joriy etish, bu sohani raqobatbardosh, eksportbop va barqaror tarzda rivojlantirish uchun muhim shart hisoblanadi. Xorijiy tajribalardan unumli foydalanish va ularni milliy modelga adaptatsiya qilish - kelajakdagi o'sish nuqtasi bo'lishi mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Deming, W. E. (1986). *Out of the Crisis*. MIT Press.
2. Juran, J. M. (1992). *Juran on Quality by Design*. Free Press.
3. Crosby, P. B. (1979). *Quality is Free*. McGraw-Hill.
4. Feigenbaum, A. V. (1991). *Total Quality Control*. McGraw-Hill.
5. Ishikawa, K. (1985). *What is Total Quality Control? The Japanese Way*. Prentice-Hall.
6. Taguchi, G., & Wu, Y. (1980). *Introduction to Off-Line Quality Control*. Central Japan Quality Control Association.
7. Oakland, J. S. (2014). *Total Quality Management and Operational Excellence (4th ed.)*. Routledge.
8. Besterfield, D. H. (2003). *Total Quality Management (3rd ed.)*. Prentice Hall.
9. Garvin, D. A. (1987). "Competing on the Eight Dimensions of Quality." *Harvard Business Review*, 65(6), 101-109.
10. Senge, P. M. (1990). *The Fifth Discipline: The Art & Practice of The Learning Organization*. Doubleday.
11. Zamani, S., & Esfahani, M. (2019). "Implementation of TQM in Iranian Building Materials Industry: Challenges and Solutions." *International Journal of Construction Management*, 19(3), 203-215.
12. Zhou, Y., & Zhao, L. (2020). "Digital Quality Management Systems in China's Construction Materials Industry: An Empirical Study." *Asia-Pacific Journal of Quality Management*, 12(3), 177-194.
13. Beckford, J. (2021). *Quality: A Critical Introduction (4th ed.)*. Routledge.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

### 2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

---